



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 606 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rnini.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdona Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Tshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологи-ческого пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды Франции в автобиографической прозе Марселя Паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni	278
Sultonova Marxabo	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	283
Akramova Fotimabonu Kurbonovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	288
Axmedov Muslimjon Usmonovich	
Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	295
Djumabayeva Muqaddas	



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati.....	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultonov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....	369
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	373
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	378
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	383
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	
MTMgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.....	389
<i>Boymurodova Surayyo Eshqvat qizi</i>	
Musiq madaniyati asosida deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli va samaradorligi.....	393
<i>Jabborova Muattar Xatamovna</i>	

Uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish.....	398
Mamadaliyeva Barnoxon O'ktamovna	
Focusing on the Practical and Technical Aspects of Dutar Performance and Enhancing this Process.....	403
Muyassarxon Adiljanovna Achildieva, Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	409
Olloberganova Fazilat Tangriberganovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining vizual kompetensiyalarini rivojlantirishda dizayn tafakkuriga asoslangan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish	415
Shomurodov Oybek Norqulovich	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarda empatiyani rivojlantirishning neyropedagogik texnologiyalari.....	421
Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	425
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Talabalar iqtisodiy xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlari: gender tahlili	431
Yuldosheva Gavhar O'tkirovna	
Study of the Structural and Semantic Features of Simple Sentences in English and Uzbek.....	435
Askar Abdullaev	
Farosat tarbiyasini rivojlantirishda tarixiy-madaniy yondashuvning o'rni va ahamiyati.....	440
Abdimuratova Gulzar Matniyazovna	
O'quvchilarga alyuminiy elementini o'rgatishda hayot bilan bog'lab 4K ko'nikmasini shakllantirish.....	445
Abdug'aniy Esnazarov Jamalatdinovich	
Turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ijtimoiy muloqot kompetensiyasining o'rni.....	449
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
O'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishning innovatsion metodlari va diagnostikasi.....	454
Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov	
The Role of Gymnastics in Promoting Holistic Development Among Preschool Children: Physical, Cognitive, and Social Perspectives.....	458
Kosimov Bekzod Zoirovich	
Pedagogical and Managerial Factors in Developing Communicative Creativity Among Higher Education Leaders	462
Mamatova Khilola Mukhiddinovna	
NLA in Developing Presentation Competence in English B2 Learners	470
Normatova Yulduz	
Ta'lim sohasidagi yetakchi yondashuvlar.....	474
Rajabova Lola Raxmatullayevna	
Physalis alkekengi o'simligidan flavonoidlarni ajratib olishning biotexnologik usullari va jarayon ko'rsatkichlarini maqbullashtirish	478
S. B. Xidirova	
Badiiy ta'lim amaliyotiga klaster yondashuvi asosida ta'lim integratsiyasini joriy etishning strategik yo'nalishlari va metodologik asoslari.....	484
Sultanov Xaytboy Eraliyevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda lug'at ustida ishlashning pedagogik ahamiyati	489
Xabibullayev Umidxon Fayzulla o'g'li	
Gamifikatsiya texnologiyalari vositasida bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	493
Abdullayev Javohir Ismoil o'g'li	
Turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda ijtimoiy muloqot kompetensiyasining o'rni.....	496
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Qoraqalpoq prozasida inson psixologiyasi	502
Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna	
Yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda veb-resurslardan foydalanishning metodik asoslari.....	505
Karimova Guljahon Zarifovna	



Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim rivojining xalqaro va milliy tajribasi.....	510
<i>Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi</i>	
Deconstructing Power in the Digital Age: A Pedagogical Framework for Analyzing Political Terminology in Uzbek and International Media	516
<i>Ochilova Dilnora Hayotovna</i>	
Ta'lim sohasidagi yetakchi yondashuvlar.....	520
<i>Rajabova Lola Raxmatullayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda darslarni integratsiyalash jarayonida o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirish mazmuni	525
<i>Shukurova Laziza Shokir qizi</i>	
Гендерно маркированная лексика в русском и узбекском языках.....	529
<i>Мохигул Абдужабборова, Гулноз Нигматова</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar asosida ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqot metodikasi.....	533
<i>Suvanova Sevara Baxodir qizi</i>	
Роль цифровых образовательных инструментов в развитии языковой компетенции учащихся 10-11 классов Республики Каракалпакстан	539
<i>Утемуратов Улугбек Нурадинович</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining oliy ta'lim muassasalaridagi hozirgi holati.....	544
<i>Eshankulova Nargiza Xayitmuratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ mahoratini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	549
<i>Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li</i>	
Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarda addiktiv xulq-atvorning nazariy-psixologik asoslari	554
<i>Izzatov Sherzod Samad o'g'li</i>	
Yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	558
<i>Rashidov Abdurashid Murodullayevich</i>	
Sport gimnastikasi bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarda muvozanat saqlash qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	563
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, Sanayev Ikrom Iskandar o'g'li</i>	
STEAM ta'limi va fan olimpiadalarining uyg'unligi	568
<i>Djumabayeva Janar Muratbayevna</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talabalarning o'quv ehtiyojlarini tahlil qilish va shaxsiy o'qitish metodikasi.....	573
<i>Hayitov Umidjon Hamidovich</i>	
Pedagogical Technology for Effective Management of the Educational Process and Development of Students' Self-Organization in Higher Educational Institutions in a Digital Educational Environment.....	577
<i>Juraeva Gulkhayo Sabirovna</i>	
G'arbda velosport shakllanishining gender xususiyatlari.....	580
<i>Raxmonova Go'zal Bobir qizi</i>	
Mobile-Assisted Language Learning (MALL): Transforming English Language Education in the Digital Era	584
<i>Zakirova Madina Shavkat qizi</i>	
Umumta'lim maktabi rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish	588
<i>Shukurova Marjona Qobiljon qizi</i>	
Ta'lim jarayonida texnik tafakkurni shakllantirish modeli	592
<i>Z. F. Amirova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy-metodik tayyorgarligini virtual simulyatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga oid ilg'or xorijiy tajribalar	596
<i>Qo'ldasheva Shoxsanam Ravshanjon qizi</i>	
Autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan korreksion – rivojlantiruvchi ishlarda mayda motorikaning ahamiyati.....	600
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	

AUTISTIK SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR BILAN KORREKSION – RIVOJLANTIRUVCHI ISHLARDA MAYDA MOTORIKANING AHAMIYATI

Usmanova Nilufar Ilhom qizi

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada autistik spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirishning ahamiyati hamda bu yo'nalishda qo'llanilayotgan pedagogik va terapevtik usullar keng yoritilgan. Jumladan, don va tuz bilan bajariladigan mashqlar, Su-Jok terapiyasi, art-terapiya, qo'g'irchoq terapiyasi hamda qum terapiyasining mazmuni, ularning bolalarning psixofizik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif ushbu uslublarning bolalarda nutq, tafakkur, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari asosida ASB bo'lgan bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan integrativ yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: autistik spektr buzilishi, mayda motorika, Su-Jok terapiyasi, art-terapiya, qum terapiyasi, qo'g'irchoq terapiyasi, maktabgacha ta'lim, psixokorreksiya.

Abstract: This article examines the importance of developing fine motor skills in children with Autism Spectrum Disorder (ASD) and discusses the pedagogical and therapeutic approaches used in corrective and developmental interventions. In particular, the study analyzes activities involving grains and salt, Su-Jok therapy, art therapy, puppet therapy, and sand therapy, highlighting their impact on children's psychophysical development. The author emphasizes the effectiveness of these methods in promoting speech, cognitive abilities, social interaction, and emotional development in children with ASD. Based on the research findings, integrated approaches are proposed to support the comprehensive personal development of children with Autism Spectrum Disorder.

Key words: Autism Spectrum Disorder (ASD), fine motor skills, Su-Jok therapy, art therapy, sand therapy, puppet therapy, preschool education, psychocorrection.

Аннотация: В статье раскрывается значение развития мелкой моторики рук у детей с расстройствами аутистического спектра (РАС) и рассматриваются педагогические и терапевтические методы, применяемые в коррекционно-развивающей работе. В частности, анализируются упражнения с крупами и солью, Су-Джок-терапия, арт-терапия, куклотерапия и песочная терапия, а также их влияние на психофизическое развитие детей. Подчеркивается эффективность данных методов в формировании речи, мышления, социальных и эмоциональных навыков у детей с РАС. На основе результатов исследования предложены интегративные подходы, способствующие всестороннему личностному развитию детей с расстройствами аутистического спектра.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, мелкая моторика, Су-Джок-терапия, арт-терапия, песочная терапия, куклотерапия, дошкольное образование, психокоррекция.

KIRISH

Mashhur neyrofiziolog V.M. Bexterev qo'l barmoqlarining nozik harakatlari rivojlanishi bilan nutq rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratib, quyidagicha ta'kidlagan: "Qo'l harakatlari har doim nutq bilan chambarchas bog'liq va uning rivojlanishiga yordam beradi." Hayotning dastlabki bosqichida mayda motorika bolaning qanday rivojlanayotganini aks ettiradi hamda uning intellektual qobiliyatlari haqida muhim ma'lumot beradi. Qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish va mayda motorikani rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar bolalar nutqini rivojlantirish, o'zini o'zi parvarish qilish ko'nikmalarini shakllantirish va qo'lni yozuvga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Mayda motorika rivojlanishi bilan bir qatorda xotira, diqqat va so'z boyligi ham rivojlanadi.

Autistik spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda ko'pincha qo'lning mayda motorikasi rivojlanishida nuqsonlar kuzatiladi, shuningdek, ko'z-qo'l koordinatsiyasi yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Bu esa



yozuv va boshqa qo'l mehnatini talab qiladigan faoliyat turlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Autistik spektr buzilishi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, plastilin bilan ishlash, kiyinish, bog'ich bog'lash kabi aniq va muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladigan faoliyatlarda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun autistik spektr buzilishi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'l va ko'z harakatlarning aniqligi, koordinatsiyasi, qo'l elastikligi hamda ritmliligini rivojlantirish zarur. Maxsus pedagoglar, o'z navbatida, mayda motorikani rivojlantirish uchun turli xil o'yinlar va didaktik qo'llanmalardan foydalanadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autistik spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarni korreksion-rivojlantirish masalasi zamonaviy maxsus pedagogika, psixologiya va neyrofiziologiyaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ASB bo'lgan bolalarning kognitiv, kommunikativ hamda ijtimoiy rivojlanishida mayda motorikaning alohida ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotchilar qo'l barmoqlarining nozik harakatlari bosh miya po'stlog'ining nutq va tafakkur markazlari bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydilar.

N.V. Karmanova, T.A. Selixova va L.A. Grigoryanlarning "Лучшие практики по сопровождению детей с расстройствами аутистического спектра" nomli metodik qo'llanmasida autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashda multidissiplinar yondashuvning muhimligi qayd etiladi. Mualliflar pedagog, logoped, defektolog, psixolog va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning rivojlanish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Qo'llanmada sensor integratsiya mashqlari, mayda motorikani rivojlantiruvchi o'yinlar, vizual qo'llab-quvvatlash vositalari hamda individual ta'lim dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi [1, 25-41-b.]. Ayniqsa, qo'l harakatlarini rivojlantirish orqali bolaning yozuvga tayyorligi, mustaqil faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

Sensor integratsiya nazariyasining asoschisi A.J. Ayres mayda motorikaning rivojlanishini bolaning markaziy nerv tizimining yetilishi bilan uzviy bog'laydi. Uning fikricha, bola tashqi muhitdan oladigan sensor axborotni to'g'ri qabul qilishi va qayta ishlashi natijasida harakatlarni muvofiqlashtirish, nutq rivoji hamda o'quv faoliyatiga tayyorgarlik shakllanadi. ASB bo'lgan bolalarda esa aynan sensor integratsiya jarayonlarining buzilganligi sababli mayda motorikada sezilarli qiyinchiliklar kuzatiladi. A.J. Ayres bunday bolalarda qo'l barmoqlarining faol harakatlarini rivojlantirish sensor tizim faoliyatini faollashtirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [2, 48-56-b.; 91-105-b.].

A.L. Bitova va O.B. Borisovskayaning "Педагогика, которая лечит" asarida korreksion pedagogikaning zamonaviy metodlari tahlil qilinib, art-terapiya, qum terapiyasi, qo'g'irchoq terapiyasi, musiqiy terapiya va o'yin texnologiyalarining autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar psixologik rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Mualliflarning fikricha, mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar nafaqat qo'l harakatlarini, balki hissiy barqarorlik, diqqat, tafakkur va ijtimoiy muloqotni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, ijodiy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlar bolalarda tashabbuskorlik va o'zini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi [3, 74-89-b.].

G.E. Bolshakovaning tadqiqotlari og'ir va ko'p sonli rivojlanish nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalarda sensor rivojlanishni korreksiya qilish masalalariga bag'ishlangan. Muallif taktik, kinestetik va propriozeptiv sezgilarni rivojlantirish mayda motorika shakllanishining asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi. Uning tavsiyalariga ko'ra, don mahsulotlari, qum, plastilin, konstruktorlar va turli teksturadagi predmetlardan foydalanish bolaning qo'l mushaklarini mustahkamlaydi, ko'z-qo'l koordinatsiyasini rivojlantiradi hamda murakkab harakatlarni bajarish qobiliyatini oshiradi [4, 118-136-b.].

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda ham qo'l barmoqlarining rivojlanganligi bolaning nutq rivojlanishiga bevosita ta'sir etishi ko'p marotaba isbotlangan. Mashhur neyrofiziolog V.M. Bexterev hamda A.R. Luriya tadqiqotlarida bosh miya po'stlog'idagi motor va nutq markazlarining funksional yaqinligi ko'rsatilib, qo'l harakatlarining faollashishi nutq markazlarining ham faollashishiga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu sababli logopedik mashg'ulotlarda barmoq gimnastikasi, mozaika, konstruktor, plastilin, qirqish, yelimlash va ip o'tkazish kabi mashqlar keng tavsiya etiladi.

Zamonaviy xorijiy ilmiy tadqiqotlarda autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalarning 70-90 foizida motor rivojlanishidagi turli darajadagi qiyinchiliklar kuzatilishi qayd etilgan. Ushbu muammolar bolaning kundalik hayot faoliyati, yozuv malakasi, kiyinish, ovqatlanish, o'yin va ta'lim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun rivojlantiruvchi mashg'ulotlar dasturiga mayda motorikani rivojlantirish vositalarini kiritish korreksion ishlarning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda Su-Jok terapiyasi, Montessori elementlari, sensor integratsiya texnologiyalari, art-terapiya va qum terapiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu metodlarning samaradorligini tasdiqlamoqda. Mazkur usullar bolaning sensor sezgirligini me'yorlashtirish, mushak tonusini yaxshilash, harakat koordinatsiyasini rivojlantirish, emotsional zo'riqishni kamaytirish hamda kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, multimodal yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda yuqori natijalarni ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy manbalarda mayda motorika faqat qo'l harakatlarini rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki nutq, tafakkur, sensor integratsiya, ijtimoiy moslashuv va mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantiruvchi kompleks rivojlantiruvchi omil sifatida baholanadi. Shu bois autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarda mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik va terapevtik texnologiyalardan tizimli foydalanish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda mayda motorikani rivojlantirishning korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi ahamiyatini o'rganishda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini maxsus pedagogika, logopediya, psixologiya va sensor integratsiya nazariyalariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi.

Shuningdek, mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan amaliy usullar: don va tuz bilan mashqlar, Su-Jok terapiyasi, art-terapiya, qo'g'irchoq terapiyasi hamda qum terapiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilib, autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni takomillashtirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autistik spektr buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar bilan ishlashda an'anaviy hamda noan'anaviy usul va texnikalardan foydalaniladi. Qo'lning mayda motorikasini rivojlantirish bo'yicha ishlar tizimli ravishda, ya'ni har kuni 5–10 daqiqa davomida to'g'ridan to'g'ri ta'lim faoliyati, birgalikdagi mashg'ulotlar hamda individual mashg'ulotlar jarayonida olib boriladi. Don (masalan, guruch yoki yorma) ichiga kichik Kinder Surprise o'yinchoqlari yashiriladi. Bola ularni qo'li yoki qoshiq yordamida topadi. Idishga qizil va oq loviya solinadi. Bola loviyalarni rangiga qarab ajratib, alohida idishchalarga joylashtiradi. Manniy yormasi tovoq yoki keng idishga solinib, tekislanadi. Bola uning ustiga turli naqshlar, shakllar yoki rasmlar chizadi. Manniy yormasi va makaron bir idishda aralashtiriladi. Ikkinchi idishga elak qo'yilib, aralashma elanadi. Elakda faqat makaron qoladi va u boshqa idishga solinadi. Namuna asosida yoki mustaqil ravishda yo'lakchalar va naqshlar yaratiladi. Bir idishda turli xil don mahsulotlari (makaron, qizil va oq loviya) aralashtiriladi. Bola ularni alohida idishchalarga ajratadi. Chimdimlab ushlabni mashq qilish: bola loviyani bosh va ko'rsatkich barmog'i bilan ushlab, kichik shishachaga soladi. Bunday o'yinlar jarayonida qo'lning mayda motorikasi, tasavvur, tafakkur va xotira rivojlanadi. Qo'l harakatlari hamda ularning ketma-ketligi mustahkamlanadi, barmoqlar kuch, harakatchanlik va elastiklik kasb etadi. Bu esa kelajakda yozuv ko'nikmalarini egallashni yengillashtiradi. Bola bunday o'yinlarda mamnuniyat bilan ishtirok etadi: barmoqlari bilan donlarni titkilaydi, ularni rangi va shakliga qarab ajratadi hamda don orasiga yashirilgan o'yinchoqlarni topishga harakat qiladi. ASB bo'lgan bolalar bilan ishlashda mayda motorikani rivojlantirish va sog'lomlashtirish maqsadida dengiz tuzidan ham foydalanish mumkin.

Dengiz tuzi:

- mushaklardagi taranglikni kamaytiradi;
- asab tizimini tinchlantiradi;
- nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilashga yordam beradi;
- mayda motorikani rivojlantiradi.

Dengiz tuzidan foydalanishning noan'anaviy shakllari bolada ijobiy his-tuyg'ularni shakllantiradi. Mazkur mashqlar qo'lning mayda motorikasini rivojlantirish va bolani sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lib, ular orqali bola siqish, bo'shatish, yengil urish, ko'rsatkich barmoqlar bilan aylantirish, kaftlarni ishqalash hamda tuzni bir idishdan ikkinchisiga to'kish kabi asosiy harakatlarni o'zlashtiradi. Barmoqlar va kaftlar uchun mashqlar. Mashqlar navbatma-navbat har ikki qo'l bilan yoki ikkala qo'l ishtirokida bajariladi. Har biri 5–7 marta takrorlanadi.

- “Sho'rva solamiz” – tuzni chimdimlab ushlab, barmoqlar orasidan sekin to'kish.
- “Quduq burg'ilaymiz” – har bir barmoq bilan tuz solingan idishda aylantirish harakatlarini bajarish.
- “Mushukcha” – barmoq uchlarini tuzga muloyim botirish.
- “Yomg'ir” – tuzni bir kaftdan ikkinchi kaftga to'kish.



- “Tap-tap” – kaftlar bilan tuz yuzasiga yengil urish.
- “Qorli bulut” – tuzni mushtga siqib ushlab turish, so'ng qo'yib yuborish.
- “Salomlashayotgan barmoqlar” – tuzni ikki kaft orasida muloyim ishqalash.
- “Tepacha yasaymiz” – kaft bilan tuzni bir joyga yig'ib, tepacha hosil qilish.
- “Tovuqcha sayrda” – har ikki qo'l barmoqlari chimdim holatda tuz yuzasiga yengil uradi.
- “Buvi bag'rida ikki quvnoq g'oz” – barmoqlar tuzni chimdib olish harakatlarini bajaradi.
- “Xazina izlaymiz” – bola tuz solingan idishda yashirilgan buyumni izlaydi.

Mazkur mashq va o'yinlar bolaning qo'l harakatlarini faollashtiradi, hissiy holatini yaxshilaydi, tasavvurini kengaytiradi hamda yozish, chizish, kiyinish va yechinish kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Mayda motorikani rivojlantirishda quyidagi vositalardan ham foydalanish mumkin:

- yirik tugmalar va plastik butilkalar qopqoqlari;
- LEGO konstruktori detallari;
- “Quruvchilar” o'yini – turli kichik buyumlar va dengiz tuzi yordamida inshootlar qurish
- “Rassomlar” o'yini – ko'rsatkich barmog'i bilan tuz yuzasida turli tasvirlarni chizish.

Barmoqlar mashqlarini dengiz tuzi bilan uyg'unlashtirish ASB bo'lgan bola uchun sodda, qulay, qiziqarli va jozibador faoliyat hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar davomida nafaqat tafakkur va boshqa psixik jarayonlar rivojlanadi, balki bolaning umumiy salomatligi ham mustahkamlanadi. Keyingi metodlardan biri – Su-Jok terapiyasidir. Bu sharq tabobatiga asoslangan davolash va profilaktika usullaridan biri bo'lib, organizmning himoya funksiyalarini faollashtirish hamda bosh miya po'stlog'ining tegishli zonalariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Su-Jok terapiyasi mashg'ulotlari she'rlar, ertaklar va qiziqarli o'yinlar bilan uyg'unlashtiriladi. Mashg'ulotlarda: prujinali halqachalar; massajli “kirpi” sharchalari qo'llaniladi.

Sharchalar kaftdagi reflektor zonalarni rag'batlantiradi, halqachalar esa barmoqlar faoliyatini faollashtiradi. Natijada sensor sezuvchanlik rivojlanadi, diqqat jamlanadi, ichki muvozanat tiklanadi hamda umumiy rivojlantirish jadallashadi. Art-terapiya ham ASB bo'lgan bolalar bilan ishlashda samarali usullardan biridir. U pedagog yoki psixolog bilan bola o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda bolaning o'ziga xosligini his etishiga yordam beradi. Noan'anaviy rasm chizish usullari, nam qog'ozda bo'yoqlar bilan ishlash, klyaksa usuli, musiqa asosida rasm chizish va barmoqlar bilan rasm ishlash bolaning hissiy holatini yaxshilaydi, tasavvurini kengaytiradi hamda ijodiy faolligini rivojlantiradi.

Qo'g'irchoq terapiyasi ham ASB bo'lgan bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, yumshoq qo'lqo'g'irchoqlar yordamida salomlashish, xayrlashish, yordam so'rash va yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllantiriladi. Qo'g'irchoq orqali olib borilgan muloqot bolaga savol berish, javob qaytarish hamda tashqi muhit bilan samarali aloqa o'rnatishni o'rgatadi. Qum terapiyasi tabiiy materiallardan foydalanishga asoslangan bo'lib, bolaning emotsional holatini yumshatadi, ichki kechinmalarini ifodalashga imkon yaratadi va stressni kamaytiradi. Ushbu metod:

- bolaning individual dunyoqarashini namoyon etadi;
- tashvish va zo'riqishni kamaytiradi;
- erkin o'zini ifoda etishga yordam beradi;
- og'zaki muloqotdagi qiyinchiliklarni qisman kompensatsiya qiladi;
- rolli o'yinlar orqali ijtimoiy vaziyatlarga moslashishni rivojlantiradi.

Qum bilan ishlash davomida bola turli shakllar, yo'llar, tog'lar va syujetlar yaratadi. Bu jarayon uning hissiyotlarini ifodalash, emotsional zo'riqishni kamaytirish va ichki dunyosini namoyon etish uchun qulay sharoit yaratadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, qum bilan ishlash emotsional barqarorlikni ta'minlash va salbiy psixik zo'riqishni kamaytirishga yordam beradi.

XULOSA

Autistik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda mayda motorika rivojlanishidagi muammolar ularning umumiy rivojlanishiga, ayniqsa nutq, tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada bayon etilgan usullar – don bilan o'yinlar, dengiz tuzi bilan mashqlar, Su-Jok terapiyasi, art-terapiya, qo'g'irchoq terapiyasi va qum terapiyasi – bolaning mayda motorikasini faollashtirish orqali uning psixologik, emotsional va ijtimoiy

rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mashg'ulotlar nafaqat harakat koordinatsiyasini yaxshilaydi, balki bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va uni mustaqil hayotga tayyorlaydi. Shunday qilib, ASB bo'lgan bolalar bilan ishlashda tizimli hamda integrativ yondashuvlar yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Карманова Н.В., Селихова Т.А., Григорян Л.А. Лучшие практики по сопровождению детей с расстройствами аутистического спектра (опыт Республики Коми): методическое пособие для руководителей и педагогических работников образовательных организаций Республики Коми. – Сыктывкар, 2019. – 144 с.
2. Айрес Э.Дж. Ребёнок и сенсорная интеграция. Понимание скрытых проблем развития / пер. с англ. Ю. Даре. – Москва: Теревинф, 2009. – 272 с.
3. Битова А.Л., Борисовская О.Б. Педагогика, которая лечит. – Москва: Теревинф, 2013. – 203 с.
4. Большакова Г.Е. Коррекция сенсорного развития учащихся с тяжёлыми множественными нарушениями развития. – Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2010. – 320 с.
5. Schaaf R.C., Mailloux Z. Clinician's Guide for Implementing Ayres Sensory Integration: Promoting Participation for Children with Autism. Bethesda, MD: AOTA Press, 2015. – 320 p.
6. Case-Smith J., O'Brien J.C. (Eds.). Occupational Therapy for Children and Adolescents. 7th ed. St. Louis, MO: Elsevier Mosby, 2015. – 1248 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.